

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

## NAVOIY IJODIDA FANO TALQINLARI TADQIQI

**Munira Xudoyorova**

*Navoiy davlat pedagogika instituti,*

*“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrası dotsenti*

**Annotatsiya:** *Maqolada Ibrohim Haqqulning fano haqidagi qarashlari tahlilga tortilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *fano, faqr, o‘zlik, g‘azal, qit‘a.*

**Annotation:** *The article examines Ibrahim Haqqul's analysis and interpretations about "fano"*

**Keywords:** *"fano", "faqr", identity, "ghazal", short poem.*

**Аннотация:** *В статье рассматриваются анализ и интерпретации о фане Ибрагимом Хаққулом.*

**Ключевые слова:** *фана, ницета, идентичность, газель, короткие стихотворение.*

Alisher Navoiy asarlarida “sobit bir e’tiqod” bilan tilga olingan fano va foniqlik Navoiy hayoti, shaxsiyati, asarlarini o‘rganish faoliyatining markaziy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan Ibrohim Haqqulning eng sevimli mavzularidan biri edi.

Navoiy asarlarining o‘ziga xos, balki asosiy jihati uning turli janrlardagi asarlari zamiriga singdirilgan fanoda namoyon bo‘lishini, ijodkor dunyoqarashining fanodagi zuhurini, shoir shaxsiyatining noyob qirralarini foniqlikda ekanligini anglash va anglatish zohirbin, nozik mushohadali olimning Navoiy ijodiga bag‘ishlangan turli mavzudagi tadqiqotlarining bosh masalasi edi. Nafaqat Navoiy ijodi, balki Sharq tasavvuf adabiyoti va mumtoz falsafasini bilish, ularda yoritilgan eng murakkab va jumboqli mavzularni ham to‘g‘ri talqin qilish uchun tazodiy ikki tushuncha ma‘no-mohiyatini chuqur tushunmoq zarurligini Ibrohim Haqqul alohida ta’kidlaydi. Ulardan biri ruh va nafs bo‘lsa, ikkinchisi fano va baqo [1].

Ustozning 1989-yilda Erkin Vohidovning so‘zboshisi bilan nashr qilingan “Zanjirband sher qoshida” [2] nomli risolasidagi “Fano va fanolik” maqolasidan boshlangan talqin-u tadqiqatlar “Navoiyga qaytish” [3] turkum kitoblaridan joy olgan “Navoiy she’riyatida fano talqinlari”gacha davom etdi. Olim dastlabki maqolalaridanoq Navoiyning “fano orqali faqat o‘zlikdan kechish, o‘lim va baqosizlik kayfiyatlarini targ‘ib etganligi” haqidagi qarashlarni rad etib, fanoni tasavvuf ilmi nuqtayi nazaridan baholab, uning “yuz risola bo‘lg‘usu” ma‘no va maqsadlariga alohida e’tibor bilan qaraydi.

*Deding “Fano nedurur?” Muxtasar deyin: “O‘lmak!”*

*Ki sharhin tilasang, yuz risola bo‘lg‘usidir.*

Hujviriyning “Kashf ul-mahjub” ida: “Zohir ahli bu ta’birda hayrat etganlari qadar boshqa hech bir ta’birda hayratga tushgan emaslar” [4],-deya e’tirof etilgan, “na hind, na islom faylasuflari mag‘zini chaqa olmagan” fanoning talqini uchun adabiyot

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

tarixi haqidagi bilimlarga yetarli emas. Ibrohim Haqqul tasavvuf falsafasi bayoni yoritilgan, tasavvuf ilmi izohlangan (Ustozning Kalaboziy, Abu Nasr Sarroj Tusiy, Abdulkarim Kushayriy, Hujviriy, Imom G‘azzoliy, Shahobidin Suhravardiy asarlarini mutolaa qilayotganlarini ko‘p marta guvohi bo‘lganman), “tabaqoti sufiya” va manoqib kitoblari bilan tanish bo‘lmaganda, Navoiy baytlari zamiridagi fanoning haqiqatlarini, bu istilohning eng inja va nozik ma‘nolarini kashf etolmas, teranlik bilan tahlil qilolmas edi.

Fanoning tarqalishi va yoyilishi ko‘plab ilmiy asarlarda Abu Said Harrozning nomi bilan bog‘lanadi. U fanoni “qalbdan dunyo va oxirat lazzatlarining ketmog‘i...” [5] deb tushuntiradi. O‘z asarlarida fanoga maxsus boblar ajratib, u haqida batafsil to‘xtalgan olimlarning fikrlari ham Abu Said Harrozning fano borasidagi fikrlarini tasdiqlaydi. Jumladan, Abdulkarim Kushayriy fano haqida shunday yozadi: “So‘fiylar fano so‘zi bilan insondagi yomon sifatlarning yo‘q bo‘lmog‘iga ishorat etadilar...” [6] desa, Kalaboziy fanoni: “qulning lazzat va orzulardan fone bo‘lmog‘i”, [7] deya izohlaydi. Fano haqidagi bu kabi nazariy ma‘lumotlardan yaxshi xabardor bo‘lgan olim Navoiyning:

*Kimki o‘zlik imoratin buzdi,  
Bo‘ldi naqdi fano aning muzdi.  
Ul imoratni buzmayin solik,  
Bo‘la olmas bu naqdga molik*

qit‘asini tahlilga tortar ekan, eng avvalo, “o‘zlik” so‘zini bashariy o‘zlik mazmunida tushunish zarurligini aytadi: “Bashariy o‘zlik insondagi malakiy, ruhoniy sifatlarning bilan birga hayvoniy va shaytoniy xususiyatlarni mujassamlashtirgan menlik...She’rda “o‘zlik imoratin” buzish, xudbinlik, xudparastlik, tama, xasad, kibr, riyo singari o‘nlab hislardan qutilish nazarda tutilgan”. [8] Hujviriy ana shu yomon odatlarning fone bo‘lib, ularning o‘rniga go‘zal odatlarning boqiy bo‘lishini “axloqiy ma‘nodagi fano va baqo” deb ataydi. “Yomon bir odat yo‘q qilinsa, zarur holda uning o‘rniga go‘zal bir hulq kelur, ro‘yo, yolg‘on, xasislik, qo‘rqoqlik, nafrat, isyonchilik kabi yomon va chirkin odatlar yo‘q qilinsa, bularning ziddi bo‘lgan ixlos, to‘g‘rilik, jo‘mardlik, jasorat, sevgi, itoat kabi yaxshi va go‘zal odatlarning bor bo‘lishi zarur bo‘ladi”, [9] deya ta’kidlaydi. Qit‘a tahlilida Ibrohim Haqqul Hujviriy bilan hamfikir: “O‘zligida ilohiy haqiqat nurini idrok qilgan inson axloqidan barcha yomon va tuban xislatlar yo‘qoladi”. Undagi ma‘naviy pokizalik, idrok o‘tkirliigi, teran xayol to‘xtovsiz taraqqiy etadi”[10].

Fanoni “takabburlikka qarshi xoksorlik” mazmunida anglashda tadqiqotchi I.S.Braginskiyning fikrlarini yoqlaydi. Alisher Navoiyning:

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

*Menga ishrat yeri kunji fano bas,*

*Yangi masnad bir eski buryo bas.*

deb boshlanuvchi g‘azalidagi tinch, pokiza, orombaxsh va safo maskani “kunji fano” (fano burchagi) talqini uning egasining holiga beixtiyor havasingizni keltiradi. “Fano kunjidagi kishi shu darajada qanoatliki, u ishratparastlik hislaridan ko‘nglini allaqachonlar poklagan. Unga oliy istaklar yo‘lidagi ranj va mashaqqat xunobalari ham yetarli. U shu holatida ruhan juda yuksak shaxs. Shuning uchun u hech narsani nazarga ilmaydi. Uning ma’naviy shohlighi oldida hatto toj-u taxt sohiblari hech narsa emas” [11].

Foniylikni “O‘zlikni muhofaza qilishning eng baland,eng daxlsiz vositasi”, deya baholagan olim uning shartlarini ham Navoiyga ko‘ra belgilaydi: “Fanolikning asosiy shartlaridan biri – faqirlik, faqirlik shu mazmundaki, unda kibr “havo-yu havas”, manmanlik daf qilingan bo‘lishi lozim” [12].

*Fano havas qil-u faqr et havo Navoiydek,*

*Vale havo-yu havas qilmag‘il havo-yu havas.*

Ayni paytda ruboiylaridan birida “Kim faqr talab qilsa, fanodur anga shart”, deydi.

Tasavvufdagi vahdati vujud ta’limotiga ko‘ra, Allohning vasliga erishish uchun qator bosqichlardan o‘tiladi. Shariat, tariqat, ma’rifat singari bosqichlardan so‘ng fano (“bandaning xudo tarafiga sayri”ning yakuni) ham yuzaga keladi. Demak, “fano Allohga yaqinlashmoqning old darajalaridan biridir” [13]. Ibrohim Haqqul fanoning eng murakkab ma’nolaridan biri bo‘lgan bu jihatini Majnunning Layliga yozgan:

*Yo‘qlik menga gar bo‘libturur yo‘l,*

*Sen bor bo‘l-u bu yo‘qqa yor o‘l.*

maktubi misolida sodda va tushunarli talqin etadi: “Bu – fanolik yo‘li. Fanolik esa ishqi haqiqiyning so‘nggi bosqichi. Bu bosqichga ko‘tarilgan oshiq ruh qushini o‘zlik qafasidan butunlay xalos qilib, boqiy hurlikka erishadi. Majnunning “vahshiy hayvonlar bilan ulfatlashishi”- butun borliq olam bilan birlashish ramzidir”. Shuning uchun u “Tog‘ cho‘qqilari mening otim, samum hullasi menga to‘ndir”, deydi. Shuning uchun uning hajr tig‘idan chok ko‘ksidan hasharotlar qo‘rqmasdan ichiga kiradi. Bag‘riga chibinlar kirib g‘avg‘o qilishadi. Ko‘z uyida chumoli vatan quradi”[14]. Majnun bu holatini “Navoiy she’riyatida fano talqinlari” maqolasida fanofilloh istilohiga berilgan ta’rif yanada oydinlashtiradi, fanofilloh maqomidagi inson Alloh bilan birlashib ketadi,degan xato mulohazalarga “Fanofilloh maqomiga yetishish-hayotga, insonning o‘z hamjinslari xizmatiga qaytishining yangi yo‘li. Bunda inson shu darajada poklanib, oriflik, xolislik, mehr-muruvvat xislatlarini shu darajada

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

kamol toptirganki, bunday zotlar uchun xizmat eng oliy matlab, muhtojlarning og‘irini yengil qilish-ikki dunyo saodati” [15], deya aniqlik kiritadi.

Bugungi kun o‘quvchisi akademik Naim Karimov haqli e‘tirof etganlaridek, badiiy asarni jarrohnng qo‘llari bilan emas, zargarning qo‘llari bilan paypaslab, ulardagi haqiqatlarni qalb ko‘zi bilan o‘qiydigan va kashf etadigan Ibrohim Haqqulning Navoiyning ruhini yayratadigan fano talqinlaridan quyidagi xulosalarni oson ilg‘aydi: Fano-nafsga qarshi kurashishning kuch va quvvat manbayi. Fano-riyokorlik, takabburlik, xudbinlik, xasad, tamadan uzoqlashishning najoti. Fano-maqсад emas, vosita va tajriba usuli. Fano – o‘zgalarni tarbiya va idora aylash salohiyati sohiblari makoni. Fano – Navoiy asarlarini ichdan nurlantirib turuvchi tilsim. Fanoning haqiqatlari ana shu ma’nolarda anglansa, bugungi globallashayotgan dunyo muammolariga ham yechim topiladi.

## Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Haqqul I.Navoiyga qaytish.3-kitob.Toshkent:Tafakkur,2016.26-bet.
2. Haqqul I.Zanjirband sher qoshida.Toshkent:Yulduzcha.1989.
3. Haqqul I.Navoiyga qaytish.2-kitob.Toshkent:Fan,2011.
4. Hucivri.Kesfu‘l-mahcu‘b.-Istanbul:Derg`ah Yayinlari,57/1,365-bet.
5. Komil Yilmaz.Tasavvuf va tariqatlar.-Istanbul:Ensar nashriyoti,1994,215-bet.
6. Abdulkerim Kuseyri risalesi.-Istanbul:Dergah Yayinlari, 57/1,196-bet.
7. Kelaba'zi.Ta'arruf.-Istanbul:Dergah Yayinlari,57/1,182-bet.
8. Haqqulov I.Kamol et kasbkim Toshkent:Yoshlar matbuoti,2021.57
9. Hujivri.Kesful-mahcu'b.-Istanbul:Dergah Yayinlari,57/1,366-bet.
- 10.Haqqulov I.Kamol et kasbkim Toshkent:Yoshlar matbuoti,2021.58
- 11.Haqqul I.Zanjirband sher qoshida.Toshkent:Yulduzcha.1989.151
- 12.Haqqul I.Zanjirband sher qoshida.Toshkent:Yulduzcha.1989.153
- 13.Komil Yilmaz . Tasavvuf va tariqatlar.-Istanbul:Ensar nashriyoti, 1994,215-bet.
- 14.Haqqulov I. Abadiyat farzandlari. Toshkent: Yosh gvardiya,51-bet.
- 15.Haqqul I.Navoiyga qaytish.2-kitob.Toshkent: Fan,2011.119-bet.